

Multimedia Vositalari Asosida Tayyorlov Guruhi Bolalarini Ijodiy Hikoya Tuzishga O‘Rgatishda Zamonaviy Yondashuvlar

Egamberdiyeva Muqaddas Gupronqul qizi
Buxoro Innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Asqarova Aziza Alisher qizi
Buxoro Innovatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirishda multimedia vositalaridan foydalanishning hozirgi kundagi ahamiyati, imkoniyatlari hamda mazkur multimedialarni joriy qilish bo‘yicha samarali metodlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ, qobilyat, axborot, texnologiya, multimedia, sichqoncha, dasturlar, metod, didaktika.

Kirish. Tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, qobilyati, dunyoqarashi va yoshlarini inobatga olish, ko‘zlarini charchab qolishini hisobga olib, tarbiyalanuvchilarning bilimni rivojlantirib, xotirasini mustaxkamlab, diqqatini jamlash, kompyuter vositasi orqali qobiliyatlarini rivojlantirish ham multimedia texnologiyalari orqali mashg‘ulotlarni o‘tishning psixologik xususiyatlari hisoblanadi.

Kompyuter muhiti ushbu qonuniyatlarni hisobga oladi, ob'ekt va grafik modellarni qurish va ulardan foydalanishda maktabgacha yoshdagi bolani o'zlashtirish jarayonini kuchaytiradi. Bu bolaning matematik rivojlanishiga ham foydali ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek hayotimizning barcha jabhalarini axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz (AKT) tasavvur qilish murakkab bo'lib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bundan tashqari Maktabgacha ta'lim tashkilotida Zamonaviy kompyuter vositalari asosida mashg'ulotlarni tashkil etish: axborot jamiyatining jadal rivojlanishi, bolalarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishlarini sezilarli darajada oshirish, narsa va hodisalarning rang, harakat va tovushda qayta yaratilishi orqali bolalarning qobiliyatlarini kengroq ochishga yordam beradi hamda aqliy faoliyatini rivojlantirib boradi. Hozirgi kunda zamonaviy kompyuterlar bir vaqtning o'zida matn, grafik tasvir, ovoz, nutq va videorolik ko'rinishidagi ma'lumotlarni qisqa vaqtda hamda tezlikda yaratish imkonini bermoqda. Bularning barchasi maktabgacha ta'lim tashkilotining sifat jihatidan yangi talablari - hayot davomida ta'limning birinchi bo'lagi bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri bolaning rivojlanish salohiyati hisoblanadi. Shuning uchun, zamonaviy multimedia mashg'ulotlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy etish zarur deb bilaman.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborot texnologiyalari asosida multimedia mashg'ulotlaridan foydalanish va joriy etishning asosiy shartlaridan biri shundaki, bolalarga zamonaviy kompyuterning texnik imkoniyatlarini biladigan, ular bilan turli usullarda ishlash malakalariga ega bo'lgan, kompyuterdan foydalanish qonun-qoidalariga to'liq rioya qiladigan va tarbiyalanuvchilarga multimedia mashg'ulotlari orqali bilim bera oladigan mutaxassislar bo'lishi kerak. Shuni inobatga olgan holda bugungi kunning muhim talablaridan biri bo'lgan zamonaviy tarbiyachi mashg'ulotlarni multimedia, taqdimot, video roliklar va boshqa kompyuter texnologiya

vositalaridan foydalangan holda maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga bilimlarini sifat jihatidan yangi kompyuter tarmog'i resurslari yordamida yetkazib berishi lozimdir.

Zamonaviy yondashuvlar asosida tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda bir nechta asosiy metodologik yondashuvlar mavjud. Ushbu maqolada, ilg'or pedagogik texnikalar, metodlar va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili

Ijodiy hikoya tuzish jarayonida qo'llaniladigan metodologiyalar va yondashuvlar bo'yicha adabiyotlar tahlili quyidagi asosiy manbalarni o'z ichiga oladi:

1. **Vygotsky, L. S.** (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Bu asar, bolalarning kognitiv rivojlanishini tushunishga yordam beradi va hikoya yaratish jarayonidagi muhim omillarni o'rgatadi.
2. **Gardner, H.** (1993). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Gardnerning bu asari, bolalarning turli intellektual salohiyatlarini rivojlantirish uchun ijodiy usullarni qo'llashni ta'kidlaydi.
3. **Csikszentmihalyi, M.** (1996). *Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention*. Ushbu asar ijodiy jarayonni tahlil qiladi va yaratuvchanlikni qanday rivojlantirish mumkinligi haqida muhim tushunchalarni taqdim etadi.

Zamonaviy yondashuvlar va metodlarning amaliyotda qo'llanilishi, bolalarning ijodiy hikoya tuzishdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shuningdek, bu jarayon bolalar tilini, tasavvurini va yaratuvchanligini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Metodologiya

Ijodiy hikoya tuzish jarayonini o'rgatishda, metodologiya bir nechta asosiy qadamlar asosida tashkil etiladi. Bular:

1. **Kognitiv yondashuv** – Bolalarga hikoya tuzish jarayonida tasavvur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv. Bu, bolalar o'z fikrlarini shakllantirish va mazmunni yaratish uchun turli xil metodlardan foydalanadi. Misol uchun, bolalar hikoya boshlanishi, rivojlanishi va yakunlanishiga oid bosqichlarni tushunishga yordam beradigan mashqlarni bajaradilar.
2. **Kontekstual yondashuv** – Bu yondashuv bolalarning atrof-muhit, madaniy va ijtimoiy tajribalarini hikoya yaratishda hisobga olishni ta'minlaydi. Bolalar, o'z hayot tajribalariga asoslangan hikoyalar yaratishda va ulardan o'rganishda rivojlanadilar.
3. **Interaktiv metodlar** – Zamonaviy texnologiyalar va multimedia vositalari yordamida interaktiv metodlar qo'llanadi. Masalan, hikoya tuzish jarayonida kompyuter dasturlari, mobil ilovalar yoki onlayn platformalar orqali o'qituvchi va talabalar o'rtasida interaktiv aloqalar o'rnatiladi.
4. **Yaratuvchanlikka asoslangan o'qitish** – Bolalarni o'z fikrlarini erkin ifodalashga undash, ular ijodiy erkinlikka ega bo'lishi uchun o'rgatish. Bu orqali bolalar hikoya yaratishda o'ziga xos usullarni qo'llay oladilar.

Munozara

Zamonaviy yondashuvlarning ta'siri haqida munozara qilganda, turli nuqtai nazarlar mavjud. Bir tomondan, multimedia vositalarini qo'llash bolalarga hikoya yaratishda yangi imkoniyatlar beradi, chunki ular tasavvur va ijodiy fikrlashni mustahkamlash uchun ko'plab resurslardan foydalanadilar. Boshqa tomondan, texnologiyalar va digital vositalar bolalarning diqqatini uzoq muddat ushlab turishda, ularning yaratuvchanlik va tasavvur qobiliyatini cheklashi mumkin. Shuning uchun, bolalarni o'rgatishda an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish juda muhimdir.

Bundan tashqari, hikoya yaratish jarayonida individual yondashuvning ahamiyati katta. Har bir bola o'z uslubini, nutqini va tasavvurini rivojlantirishga moyil. Shu sababli, o'qituvchi har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni ijodiy faoliyatga yo'naltirishi lozim.

Natija

Zamonaviy yondashuvlar asosida tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda, o'qituvchi bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar yangi bilimlarni egallash, o'z fikrlarini erkin ifodalash va madaniy hamda ijtimoiy tajribalarini hikoya orqali aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu yondashuvlar bolalarning til va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlash, hamda ularda o'z fikrini yaratishda va ifodalashda mustahkam asoslarni shakllantiradi.

Hozirgi kunda har qanday maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachisi kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda darslarni samarali va mazmunli o'tkazishi kerak. Kompyuter texnologiyalari orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar ko'rgazmali, rang-barang, ma'lumotli, interaktiv bo'lib, tarbiyachi va bolalarning vaqtini tejaydi, tarbiyachiga bolalar bilan frontal va individual ishlashga, mashg'ulotnatijalarini tezkor kuzatib borish va baholash imkoniyatini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni kompyuterlashtirish samaradorligi, ishlatilayotgan vositalarining sifati va ularni dars jarayonlarida, mashg'ulotlarida unimli va oqilona ishlatilish malakasiga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborotlashtirish tarbiyachiga o'quv jarayonining innovatsion g'oyalarini amalga oshirishga qaratilgan yangi uslubiy ishlanmalarini joriy etish uchun imkoniyatlar eshigini ochadi. Misol uchun: tarbiyalanuvchilarga multimedia vositasi orqali ijodiy hikoya va ertaklar tuzishga o'rgatishimiz ham mumkin. Ekrandagi turli tasvirlar orqali bolalar o'zlari hikoya tuzib, tarbiyachi ko'magida ovozlarni ro'llarga kirishgan holda yozib olib uni birgalikda tomosha qilishlari yoki o'zbek va jaxon xalq ertaklaridan bolalarga ijodiy yondashgan holda ro'llarga ajralib ovozlarni multimediaga solishlari o'rgatiladi. Bu orqali bolalar kompyuter texnologiyalaridan mashg'ulot jarayonida unimli foydalanadi, tarbiyachilar esa mashg'ulotining samarali tashkil etilishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari Maktabgacha ta'lim tashkilotida multimedia vositalari, ovoqli, musiqali, harakatlanuvchi jozibali bo'lishi kerak, anashundagina ta'lim- tarbiya jarayonida samarali foydalanishga va ta'lim sifatini yanada yuqori darajaga ko'tarishga hizmat qilgan bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, har bir yoshdagi bolalar uchun tarbiya turlarini yoritib beradi. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim pedagogikasi bir qancha olimlar, pedagoglar hamda tadqiqotchilarning ishlari orqali ham shakllanib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan o'quv matterillariga quyidagilar kiradi: qalam, qaychi, kitob, rangli qog'oz, oq qog'oz, ko'rgazmali materiallar, tarqatma materiallari va boshqalar. Agarda mashg'ulotlarni multimedia dasturlari orqali olib borilsa, texnologiya orqali bola ko'p turli hil materiallar bilan birgalikda barcha sohalar orqali bilimlarini yanada mustaxkamlashlari mumkin. Yuqoridagi fikrimizga misol keltirgan holda, hozirgi kunda juda ko'p bolajonlar uchun turli tillarga tarjima qilingan elektron kitoblar qiziqarli bolalarga oid qurib-yasash, misollarni yechish, hikoya tuzish kabi ma'lumotlar va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi texnologiya asrining yosh avlodlarini o'qishi va bilimlarini zamon asosida mustaxkamlashi uchun yaratilmoqda. Lekin har bir narsaning foyda tomoni bo'lganidek albatta zararli tomonlari ham mavjuddir.

Xulosa

Zamonaviy yondashuvlar asosida tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatish, pedagogik jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Kognitiv, kontekstual va interaktiv metodlar orqali bolalarning tasavvuri, yaratuvchanligi va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Multimedia vositalaridan foydalanish bolalarga hikoya tuzish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, ammo texnologiyalarni ehtiyotkorlik bilan qo'llash zarur, chunki bu bolalarning ijodiy salohiyatini cheklashi mumkin. Shuning uchun, o'qituvchining yondashuvi har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ijodiy hikoya tuzish jarayoni

nafaqat til o'rgatish, balki bolalarda o'z fikrini ifodalash, tasavvurini kengaytirish, va madaniy hamda ijtimoiy tajribalarini aks ettirishga ham yordam beradi. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bolalar uchun ijodiy va ilmiy faoliyatni rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi, ularga o'z fikrlarini mustahkam va erkin ifodalash imkonini beradi.

Shu sababli, zamonaviy texnologiyalar va pedagogik metodlarni uyg'unlashtirgan holda, bolalarni ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda samarali natijalarga erishish mumkin. Bu jarayon bolalarning nafaqat til o'rgatishda, balki umumiy intellektual va ijodiy rivojlanishida ham katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595 sonli qonuni.
2. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O'qituvchi,1991.40bet.
3. Axmedov A.A. Ilmiy tadqiqot asoslari. – Qarshi.: 2002. 110 b.
4. Макарова В.Н, Ставцева Е.А. (2018). Использование мультимедийных средств в развитии природоведческой лексики детей дошкольного возраста. "Наука и образовании". 271 С.
5. Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. Интернаука, 13-2, С. 78-79.